

## YANGI O'ZBEKISTONDA KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN TAJRIBA-SINOV LOYIHALARI

**To'xtarova Shahnoza Xudoyberdi qizi**  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*  
*ARM rahbari,*

**Annotatsiya:** ushbu tezisda kutubxona-axborot muassasalari rivojlanishida foydalanilayotgan tajriba-sinov loyihalari va ularning samarasi haqida yoritilgan. "tajriba-sinov loyiha" iborasining sohadagi qo'llanilish tahlili haqida ma'lumotlar berilgan.

**Калит сўзлар:** loyiha, tadqiqot, kutubxona, mahalla kutubxonasi, elektron kutubxona, katalog, elektron katalog.

**Abstract:** In this thesis, the pilot projects used in the development of library and information institutions and their effectiveness are discussed. Information about the analysis of the use of the phrase "experimental project" in the field is given.

**Key words:** project, research, library, neighborhood library, electronic library, catalog, electronic catalog.

Kitobsiz uy – qalbsiz tanaga o'xshaydi. (Sitseron)

Siz eng go'zal o'rniksiz... Agar xonadongizda kutubxona bo'lsa!

### KIRISH

Bilim va madaniyat darvozasi sifatida kutubxonalar jamiyatda asosiy rol o'ynaydi. O'qish uchun imkoniyatlar yaratish, shuningdek, savodxonlik va ta'limni qo'llab-quvvatlash, har bir kutubxona taqdim etayotgan resurslar va xizmatlar ijodiy va innovatsion jamiyat qurishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi g'oyalarni shakllantirishga yordam beradigan barcha ishlarni amalga oshirishda asosdir. 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanterishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilgan, shu jumladan kutubxona-axborot faoliyati sohasida ham. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish borasida targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali va tizimli tashkil etish maqsadida hududlarda kitob bayrami va yarmarkalarini tashkil etish, aholi o'rtasida milliy va jahon mumtoz adabiyotining yuksak namunalarini targ'ib qilish, jumladan nashriyotlar, kitobxonlar hamda kutubxonachi va targ'ibotchilar orasida "Yilning eng yaxshi kitobi", "Eng kitobxon maktab", "Eng kitobxon mahalla" "Eng kitobxon oila", "Yilning eng yaxshi bolalar kitobi", "Yilning eng yaxshi audio kitobi", "Yilning eng yaxshi elektron kitobi" kabi tanlovlardan o'tkazish haqidagi nizom tasdiqlangan.

Asosiy qism. O'zbek xalqi bugun Yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan kitoblar tanlamoqda. Bu jarayonda kitobxonlik pasayganday ko'rinsa ham aslida u sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bularning barchasi prezidentimiz tomonidan chiqarilayotgan qaror, farmon va e'tiborning natijasi deb hisoblayman. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoning 72-maqсадида “Ahолига ахборот-кутубхона хизматини ко’рсатишни янада ривојлантirish, kitobxonlikni keng оммалаштириш hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g’оясини ro'yobga chiqarish” shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi 781-son qarorida kitobxonlikni rivojlantirish vazifasi belgilangan. Bundan tashqari bugungi kunda Yurtboshimiz tomonidan 3-Renessanas, Yangi O'zbekiston g'oyasi ilgari surilmoqda. Buni ro'yobga chiqarish uchun esa eng avvalo insonlar, ayniqsa, yoshlar ongida ma'naviyatni yuksaltirish zarur. Ma'naviyatni yuksaltirishning asosiy vositasi esa kitob va kitobxonlikdir. Kutubxonalar, shuningdek, o'tgan avlodlar tomonidan yaratilgan va to'plangan bilimlarning haqiqiy yozuvini ta'minlashga yordam beradi. Agar biz kutubxonalarsiz dunyoda yashasak, tadqiqot va insoniy bilimlarni rivojlantirish, shuningdek, jahon bilimlari va merosini kelajak avlodlar uchun saqlab qolish ancha mushkul bo'lar edi. Ommaviy kutubxonalar yillar davomida doimiy ravishda rivojlanib kelgan, ular o'rganish, kasbiy rivojlanish va sog'liqni saqlashga yordam berish uchun muhim jamoat markazlari bo'lib xizmat qilmoqda. Aslida kutubxonalar ta'limning sinonimi bo'lib, son-sanoqsiz manbalar, xususan, kitoblar, internetga kirish, bosmaxonalar, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishga turtki beradigan ta'lif va kasbiy tayyorgarlik dasturlarini taqdim etmog'i lozim. Bugungi kunda kutubxonalar nafaqat yuzma-yuz xizmat ko'rsatmoqda, balki pandemiya nuri keng jamoatchilikka kirishni yaxshilash uchun elektron ta'lifni ham o'z ichiga olgan. Har bir talaba o'z o'qishi uchun foydalanishi kerak bo'lgan har bir kitob yoki jurnalni sotib olish imkoniyatiga ega emas, shuning uchun ular o'zlarining akademik iste'molini ta'minlash uchun kutubxona xizmatlariga tayanadilar. Kutubxonalar mahalliy jamoalarni ma'naviy jihatdan mustahkamlashda, birlashtirishda muhim rol o'ynaydi, shu bilan birgalikda masofadan turib ishlaydiganlar uchun ish joyini ta'minlaydi, ishga joylashish imkoniyatini qidirayotgan odamlar uchun bepul internetga kirishni ta'minlaydi, hamda ishchi kuchining malakasini oshirish uchun katta miqdorda mablag' sarflamasdan muhtoj bo'lganlar uchun ish va suhbatlar o'rgatadi. Bugungi kunda kutubxonalarda mavjud bo'lgan texnologiyalar innovatsion bo'lishi talab etiladi, aks holda barcha uchun mavjud bo'lмаган qimmatbaho vositalar, treninglar va ko'nikmalarga kirish imkoniyati cheklanib qoladi. Shu o'rinda kutubxonalardan foydalanish imkoniyati keng ekanligini namoyon etuvchi yo'lga qo'yilgan loyihalar haqida to'xtalish darkor.

2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosi yuzasidan nazorat rejasining 72-maqсад: Aholiga axborot -kutubxona xizmati ko’rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g’oyasini ro’yobga chiqarishning 224-225-227-bandlari bo‘yicha hududiy axborot-kutubxona markazlarida Milliy kutubxonaning 2023-yil 13-martdagi 17-son buyrug‘ining O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta tashabbusi bo‘yicha implementasiya strategiyasini joriy etish yuzasidan 2022-yilning oktabr oyidan buyon har oyning 17-sanasida “Kitobxon onalar kuni” tashkil qilinib kelinmoqda. Loyihani tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad xotin-qizlarimiz, ayniqsa uy bekalari orasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, kitobxon onalar sonini ko‘paytirish orqali farzandlar tarbiyasini, ma’naviyatini, madaniyatini oshirishga xizmat qilishdir. Tarbiya oiladan boshlanadi, ma’naviyatli, kitobxon onalardan, keng fikrli, tarbiyalii farzandlar dunyoga keladi. “Kitobxon onalar kuni”da Oila va xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash, bandligini ta’minlash, kasb-hunarga o’qitish, tadbirkorlikga keng jalb qilish, oilalarda sog’lom turmush tarzini rivojlantirish, oilada kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, oilaviy ajrimlarning oldini olish bo‘yicha targ‘ibot tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Prezidentimizning 2019-yil 7-iyuldagи “O’zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko’rsatishni yanada takomillashtirish to‘g’risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida barcha tumanlarda tashkil qilingan axborot-kutubxona markazlari yetarlicha kitoblar bilan ta’minlandi.

“Toshkent shahri mahallalarida kutubxonalar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi muhokamaga qo’yildi. Qarorga ko’ra,

Toshkent shahar hokimligiga balansida “Mahalla kutubxona”si mavjud bo‘lgan mahallalarni kamida 600 (olti yuz) dona adabiyot, aholiga keng qamrovli axborot berish salohiyatiga ega gazeta, jurnallar bilan ta’minlash hamda mazkur kutubxonalarda 1 ta kutubxonachi shtatini saqlash choralarini ko‘rish;

Uch oy muddatda Toshkent shahri mahallalari hududida hamda mahalla fuqarolar yig‘ini guzarlarida tashkil etilgan kutubxonalarni kompyuter texnikasi va boshqa turdagи orgtexnika, mebel, shu jumladan, maxsus mebel, shuningdek, tegishli kutubxona uskunalari bilan jihozlash, bunda imkoniyati cheklangan shaxslarga xizmat ko’rsatish uchun maxsus kompyuter jihozlari va boshqa qo’shimcha vositalar bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratish;

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan hamkorlikda Mahalla kutubxonalarini yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulanishini va Wi-Fi zonalar tashkil etish vazifasi yuklandi.

Harajatlar tuman mahalliy budgeti, homiylar va qonun hujjalarda ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi mo’ljallangan.

Kutubxonalar 2021 yil 1 oktabr kuniga qadar kutubxonalarni Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi — axborot-resurs markazi bazasi bilan integratsiya qilinadi.

Eksperiment natijalariga ko'ra, Toshkent shahrining barcha mahalla fuqarolar yig'inlarida kutubxonalar tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda respublikamizda 9000 ta mahalla mavjud bo'lib, shundan 800 tasida mahalla kutubxonalari tashkil etilgan, rejaga ko'ra 2026-yilga qadar bu kutubxonalar soni ko'paytirilib, faoliyatini me'yoriy talab darajasiga ko'ra yo'lga qo'yilishi lozim. Ilgari ham mahallalarda kutubxonalar mavjud bo'lgan, ammo ular Tuman kutubxonalari filiali sifatida faoliyat yuritgan. Yangi nizom bo'yicha mahalla kutubxonalari "Mahalla fuqarolar yig'ini" tarkibida tashkil etilmoqda.

"Kitobxon mahalla" loyihasi doirasida "Kitob sayohati" aksiyasi

So'nggi yillarda prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbusining biri bo'lmish kitobxonlik targ'iboti yuzasidan ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda yoshlarning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, xalqimizga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashda kitobxonlik va kitob targ'ibotini kuchaytirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda bu loyihalarga muvofiq Homiylik va hayriya asosida mahalliy aholiga tashkil qilingan kutubxonalar mavjud. Ular Andijon, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Navoiy, Qashqadaryo, Samarcand, Sirdaryo, Surxandaryo, Xorazm, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida tashkil etilgan. Ular jami 58 ta kutubxonalar bo'lib, ulardan 6 tasi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi bazalariga ulanganligi hamda 17 ta kutubxonada komputer mavjud, qolganlarida komputer mavjud emasligi aniqlangan (Batafsil 1-ilovada). Ularning orasidan Abbos Abduqodirov ismli tadbirkor tomonidan tashkil etilgan Toshkent shahridagi "Bookclub" nomi bilan faoliyat yuritayotgan kutubxona haqida o'rganib chiqdim. Bu kutubxonaning faoliyati 2020-yilda yo'lga qo'yilgan. Kutubxona Mirzo ulug'bek tumani, Tamaraxonim ko'chasi, "Asaka" mahallasida joylashgan bo'lib, kutubxonaning umumiyligi maydoni 12 m<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Hozirgi kunda kutubxona fondida 634 ta adabiyot mavjud. Eng muhim jihat shundaki: foydalanuvchilar adabiyotlarni begilangan ma'lum muddatga uylariga olib ketish imkoniyatiga ega. Kutubxonaning belgilangan ichki tartib-qoidalari mavjud.

BookClub kutubxonasidan foydalanishning umumiy QOIDALARI:

- Kutubxonadan foydalanuvchi kutubxona hissobiga ma'lum miqdorda depozit (so'm) qo'yadi. Qo'yilgan depozitlar kutubxonani kengaytirish uchun foydalaniladi:
  - Kitoblar sotib olinganda, kitobga to'langan pul BookClub kutibxonasiga qo'yilgan depozit hissoblanadi va u 1 (bir) yildan so'ng 0 (nol)ga tenglashtiriladi.
  - Foydalanuvchi kutubxonadan depozit miqdorigacha va unga teng bo'lgan 1 dona kitobni olishi mumkin;

- Kitob qaytarilganda, agar kitobga zarar yetkazilgan bo'lsa, zarar miqdori foydalanuvchiga bildirilib, depozit miqdoridan undiriladi;

- BookClub kutubxonasi barcha kitoblar ro'yxatga olinadi, va har bir kitobga alohida shtrix kod beriladi. Kitob shtrix kodlarini almashtirish qati'yan man etiladi;

- Kutubxona ma'muriyati barcha qoidalarni sizga xabar bermasdan o'zgartirish huquqida ega;

Telegram, Instagramda @uzbookclub rasmiy kanallari orqali kuzatib borishingiz mumkin.

BookClub.uz kutubxonasi imkoniyatlari:

Kutubxona a'zolari kutubxonamizdan bepul, o'qish uchun kitob olish imkoniyati mavjud. Toshkent shahri va viloyat markazlariga yetkazib berish bepul! Viloyatlar aro yetkazib berish uchun Fargo xizmatidan foydalaniladi. Kutubxonaga a'zo bo'lism uchun pasport (propiska bilan, qaytarilmagan kitoblarni qayerdan qidirishimizni bilish uchun) va kutubxonadan olingan kitoblarni o'z vaqtida qaytarish haqida tilxatni qo'lda yozib rasmga olib @uzbookclub\_admin yuborish lozim. Sizga yaqin bo'lgan Fargo shahobchasidan sizga yuborilgan kitobni olishingiz mumkin.

Fargo shahobchalari ro'yxati bu yerda <http://fargo.uz/zona-pokryitiya/>

Kutubxonadan foydalanib ko'rgan kitobxonlar, kutubxona xizmati va shartlari haqida o'z fikr-mulohazalarini <https://t.me/UzBookClubGroup> guruhida qoldirish va boshqa foydalanuvchilarning fikrlarini ko'rishingiz mumkin.

Bundan tashqari, mutolaa qilishni sevuvchi foydalanuvchilar uchun "Mehr kutubxonasi" deb ataluvchi yana bir bepul kutubxona haqida ma'lumot berib o'tmoqchiman. Bu kutubxona Toshkent shahrida faoliyat yuritadi hamda Toshkent viloyati Angren tumanida ham filiali mavjud. Kutubxona Chorsu, Gum Mall, Sobiq Turkuaz binosida joylashgan bo'lib, ishvaqtisi: 9:30 dan 17:30 gacha, dam olish kuni: juma kuni. Mehr kutubxonasi 2021-yilda o'z faoliyatini boshlagan. Kutubxona fondida hozirgi kunda 4391 ta adabiyot mavjud (Batafsil 2- ilovada). Kitobxonlar o'zlari tanlagen adabiyotlarni belgilangan muddatga uylariga olib ketish foydalanishlari mumkin. Bu kutubxona foydalanuvchilari 4058 tani tashkil etadi. Foydalanuvchilar adabiyotlarni online bot orqali bron qilishlari ham mumkin, bundan tashqari kutubxonada bo'sh turgan kitoblarni ushbu bot @mkitobot (<https://t.me/mkitobot>) orqali ko'rish imkoniyati ham yaratilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 38-sod, 1029-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-sod, 13.12.2019-y., 06/19/5893/4150-sod

2. Berdiyeva, Z. Sh. Kutubxonashunoslik(kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma)/ 3-nashr.-Toshkent:ILM ZIYO, 2014.-B.-85-87

3. <http://www.bookclub.uz/>

4. [www.mehrketubxonasi.uz/](http://www.mehrketubxonasi.uz/)